

RAQAMLI SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH VA INTERNET XAVFSIZLIGI TAHDIDLARDAN HIMOYALANISH BO‘YICHA INTERAKTIV O‘QUV PLATFORMASINI ISHLAB CHIQISHNING NAZARIY YONDASHUV

Sherqo ‘ziyeva (Mo ‘minova) Nozimaxon Baxtiyorjon qizi

(Farg‘ona davlat texnika universiteti)

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli savodxonlikni rivojlantirish va internet xavfsizligi tahdidlaridan himoyalaniş bo‘yicha interaktiv o‘quv platformasini ishlab chiqishning nazariy asoslari, metodologik yondashuvlari va zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish imkoniyatlari o‘rganiladi. Shuningdek, raqamli savodxonlik darajasini oshirish va xavfsizlik madaniyatini shakllantirishda interaktiv ta’limning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Raqamli savodxonlik, internet xavfsizligi, interaktiv ta’lim, raqamli platforma, kibertahdidlar, axborot texnologiyalari, media savodxonlik, foydalanuvchi xavfsizligi, pedagogik texnologiyalar, onlayn ta’lim, **muammolar va ehtiyojlar**

Kirish

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda raqamli texnologiyalar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan. Xususan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, davlat boshqaruvi, moliya va kommunikatsiya sohalarida raqamli savodxonlik asosiy kompetensiyalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, internet xavfsizligi tahdidlari – kibertahdidlar, ma’lumotlar o‘g‘irlanishi, soxta axborot tarqatilishi va onlayn firibgarliklar – foydalanuvchilarning, ayniqsa yosh avlodning raqamli makondagi xavfsizligini ta’minlash zarurligini taqozo etmoqda. Bugungi

kunda texnologiyalar hayotimizning ajralmas bir qismiga aylangan. Deyarli har bir sohada raqamli qurilmalardan foydalanilmoqda — ta’limda, tibbiyotda, biznesda, hatto oddiy kundalik ishlarimizda ham. Biroq raqamli texnologiyalar hayotimizni

yengillashtirayotgan bo'lsa-da, ular bilan birga yangi muammolar, xavf-xatarlar ham yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, internetdan foydalanish bilan bog'liq tahdidlar kundankunga ortib bormoqda. Shu sababli har bir fuqaroning raqamli savodxonligini oshirish, ayniqsa yosh avlodni internet xavfsizligi tahdidlaridan himoyalash muhim masalaga aylangan.

Raqamli savodxonlik bu raqamli qurilma, vosita va texnologiyalarni to'g'ri va samarali qo'llay olish, ma'lumotlarni tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatish qobiliyatidir. Raqamli savodxonlik quyidagilarni o'z ichiga oladi: Axborotni izlash va tahlil qilish ko'nikmalari; onlayn muomala etikasi; raqamli huquq va majburiyatlar; internet xavfsizligiga oid bilimlar va profilaktika choralari va boshqalar o'z ichiga kiradi. Internet xavfsizligi — bu foydalanuvchilarni zararli dasturlar, kiberruhiy bosim, shaxsiy ma'lumotlarning tarqalishi va boshqa tahdidlardan himoyalash choralari o'z ichiga oladi. O'quvchilar va talabalar orasida bu masalaga yetarli e'tibor qaratilmasligi turli salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Ayniqsa, soxta axborot, phishing va ijtimoiy muhandislik hodisalari keng tarqalgan.

XXI asrda axborot texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Internet vositasida ta'lim olish, muloqot qilish, ish faoliyatini yuritish va kundalik ehtiyojlarni qondirish mumkin bo'lib qoldi. Shu bilan birga, raqamli muhitda faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan raqamli savodxonlik darajasi ham dolzarb masalaga aylandi. Ayni vaqtda, internetdan foydalanish bilan bog'liq xavfsizlik tahdidlari ham ortib bormoqda: shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi, kiberjinoyatlar, soxta axborotlar tarqalishi, kiberbulling, fishing, va boshqa xavf-xatarlar mavjud.

Hozirgi kunda internet foydalanuvchilari quyidagi xavflar bilan tez-tez to'qnash kelishadi:

- Phishing (soxta sahifalar orqali ma'lumotlarni o'g'irlash)
- Malware (viruslar, zararli dasturlar)
- Kiberbulling (onlayn tahqirlash, bosim)
- Shaxsiy axborotlarning tarqalishi

- Fake news (yolg'on xabarlar) va manipulyatsiyalar

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha har uch foydalanuvchidan biri hech bo'lmaganda bir marotaba internetda kiberhujum qurboni bo'lgan. Ayniqsa, yoshlar va raqamli savodxonlik darajasi past foydalanuvchilar orasida bu xavf yuqori. Raqamli savodxonlikni rivojlantirish va xavfsizlik madaniyatini shakllantirish uchun an'anaviy uslublar yetarli emas. Shu sababli o'quvchi faol ishtirokchi bo'lishi kerak, real hayotiy misollar asosida o'rgatilishi lozim, platforma vizual, interaktiv va gamifikatsiyalashgan bo'lishi kerak va foydalanuvchining bilim darajasi avtomatik tahlil qilinib, individual yondashuv taklif qilinishi lozim.



Yevropa ittifoqi davlatlarida raqamli savodxonlik bo'yicha "DigComp" nomli umumiy raqamli kompetensiyalar modeli joriy etilgan. AQShda esa "Common Sense Education" nomli platforma orqali bolalar va o'qituvchilarga internet xavfsizligi bo'yicha bepul kurslar taklif etiladi. Bu tajribalar asosida milliy sharoitga moslashtirilgan platformalar yaratish mumkin. Raqamli savodxonlik va internet xavfsizligi masalasi milliy xavfsizlik, ta'lim, va ijtimoiy barqarorlik bilan bevosita bog'liq. Shu bois interaktiv o'quv platformalarini yaratish, ta'lim tizimi uchun muhim innovatsiya, yosh avlodni kiber tahdidlardan himoya qilish vositasi va axborotga

tanqidiy yondashishni shakllantirish omilidir.

Raqamli

savodxonlik — bu shunchaki kompyuter yoki telefon ishlata olish emas. Bu — axborotni izlab topish, uni tahlil qilish, soxta va haqiqatni farqlay olish, shuningdek internet muhitida oʻzini toʻgʻri tuta bilish, axloqiy va madaniy normalarga rioya qilish deganidir. Masalan, biror yangilikni oʻqib, uni haqiqatga yaqin yoki yolgʻonligini aniqlay olish, turli ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy maʼlumotlarini ehtiyot qilish ham raqamli savodxonlikning muhim jihatlaridan hisoblanadi.

Ayniqsa, yoshlar oʻrtasida internet xavfsizligi tahdidlariga duch kelish hollari koʻp. Soxta sahifalarga kirish, begona ilovalarni yuklab olish, nomaʼlum shaxslarga shaxsiy maʼlumotlarni berib yuborish kabi xatolar kiberjinoyatchilar uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Bundan tashqari, internetda soxta doʻstlik, yolgʻon xabarlar holatlari ham juda koʻp uchramoqda. Bunday vaziyatlarga tushmaslik uchun esa har bir insonda raqamli xavfsizlik madaniyati shakllanishi zarur.

Shunday muammolarga qarshi kurashishda interaktiv oʻquv platformalarining oʻrni beqiyos. Chunki oʻquvchilar oʻzlari faol ishtirok etgan, qiziqarli vazifalar bajargan, hayotiy misollar asosida bilim olgan taqdirda, bu bilimlar yanada mustahkam va foydali boʻladi. Misol uchun, maxsus platformalarda fishing-soxta xat misollarini ajratish, shaxsiy parollarni qanday himoya qilish, ijtimoiy tarmoqlarda qanday axborotlarni ulashmaslik kerakligini oʻrgatadigan darslar tashkil etilishi mumkin. Maktab, kollej, universitetlarda raqamli savodxonlikka oid darslar oʻtkazilishi, ota-onalar va oʻqituvchilar uchun treninglar uyushtirilishi kerak. Zero, internetdan xavfsiz va ongli foydalanish nafaqat alohida shaxsning, balki butun jamiyatning axborot xavfsizligini taʼminlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, raqamli savodxonlik — bu zamon talabi. Internet tahdidlaridan himoyalalanish esa har kimning zimmasida boʻlgan masʼuliyatdir. Shu sababli davlat, taʼlim muassasalari va jamoatchilik birgalikda harakat qilgan

taqdirdagina bu borada ijobiy natijalarga erishish mumkin bo'лади. Raqamli zamon bizdan ham raqamli madaniyatni, bilimni va hushyorlikni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Shamamatova.S.J, Murodullayeva.R.A & Sobirova.K.A (2023). AXBOROT XAVFSIZLIGI TEXNIKASI VA IT SOHASIDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI.** *Texnika va raqamli texnologiyalarning amaliyotda qo'llanilishi va ularning innovatsion yechimlari*, Xalqaro ilmiy-texnik konferensiya materiallari, 4–5 may, 540–542.
2. **Burxonova.M.M & Murodullayeva.R.A (7-mart).** Jamiyatimizning turli sohalaridagi axborot texnologiyalari xizmatlarini sifatini oshirishning ahamiyati va dolzarbligi. *Ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalar*, 237–239.
3. **Turdaliyev, M. M. (2022). Raqamli savodxonlik va internet madaniyati: zamonaviy yondashuvlar.** *Axborot texnologiyalari va ta'lim*, 4(2), 55–59.
4. **Sobirova.K.A,Shamamatova.S.J,Akbarova.M.J& Murodullayeva.R.A (2023). KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASH.** *Texnika va raqamli texnologiyalarning amaliyotda qo'llanilishi va ularning innovatsion yechimlari*, Xalqaro ilmiy-texnik konferensiya materiallari, 4-5 may,413-415.
5. **Karimova, M. R. (2023). Internet xavfsizligi tahdidlari va ularni bartaraf etishning zamonaviy usullari.** *Axborot va kiberxavfsizlik jurnali*, 2(1), 33–37.